

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 6, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№2 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2023-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафазель Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Xodjayev Sobir KEKSALIK VA ERTA QARISH SOTSIOGERONTOLOGIK MUAMMO SIFATIDA.....	4
2. To‘raxo‘jayeva Ra‘no DAVLAT XIZMATCHILARINI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH AHOLI ORASIDAGI NOROZILIK KAYFIYATINI OLDINI OLISH MEHANIZMI SIFATIDA.....	11
3. Turdikulov Shuxrat SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING INSTITUTIONAL YONDASHUVI.....	19
4. Mo‘minov Zokirjon ZAMONAVIY SOTSIOLOGIYA:IJTIMOIIY O‘ZGARISHLARDA MOBILLIK.....	26
5. Xoliqnazarov Rashidjon DUNYO VA MDH DAVLATLARI IJTIMOIIY HAYOTIDA ELEKTRON HUJJAT AYLANISH TIZIMINING O‘RNI.....	33
6. Shokirov Shaxrizod HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK FIKRINI TA‘SIRI BO‘YICHA XALQARO TAJRIBA TAHLILI.....	41
7. Nurullayeva Umida XOTIN-QIZLARNI RAHBARLIK LAVOZIMLARIGA KO‘TARILISHI: TO‘SIQLAR VA IMKONIYATLAR.....	51
8. Nazarova Nilufar STRUCTURAL-FUNCTIONAL ANALYSIS OF ENSURING PROFESSIONAL COMPETITIVENESS OF YOUTH OF UZBEKISTAN.....	62
9. A‘zamova Kumush INSON QADRINI YUKSALTIRISHDA REGULYATIV FUNKSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	72
10. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI KEYS METODI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNI TADQIQ ETISH: ASOSIIY TUSHUNCHA VA QONUNIYATLAR.....	78
11. Karimova Maftuna RIVOJLANGAN DAVLATLARNING UMUMIIY TA‘LIM MUASSALARIDA BOLALAR ZO‘RAVONLIGINI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA –TADBIRLAR.....	90
12. Butoyev Ilxom SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANISHIDA MA‘NAVIYAT TARBIYASINING TUTGAN O‘RNI.....	98
13. Bozorova O‘lmasxon YOSHLAR III RENESSANS MA'RIFIY STRATEGIYASINING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI.....	103


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Bozorova O'Imaxon

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi stajyor-tatqiqotchi
e-mail: u.bozorova@dba.uz

YOSHLAR III RENESSANS MA'RIFIY STRATEGIYASINING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8421286>

ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi kun yani III renessans yoshlarining tarbiya omillari, o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarining jihatlari keng darajada yoritib berilgan. Bunda mamlakatimiz prezidentining tarbiya borasidagi nuqtai nazarlari keltirilib, yangi davr yoshlari qanday bo'lishi va ular uchun biz qanday imkoniyatlar yaratib berishimiz mumkinligi to'g'risidagi aniq belgilangan maqsadlarga qaratilgan islohotlari aytib o'tildi. Aynan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalqimizga, Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomalarida tarbiya omiliga katta e'tibor qaratib jamiyatdagi muammolar yechimini topish va yoshlarni zamon bilan hamoxang holda ulg'ayishi lozimini ta'kitladilar.

Sharq va Yevropa olimlari, xususan, Abu Rayhon Bereniy, Vilyam Shekspirning asrlar davomida sayqallanib bugungi kungacha o'z mazmunini yo'qotmagan tarbiya, uning asl mohiyati va asosi xususidagi ta'rif hamda, fikr-mulohazalari aks ettirilgan. Mavzuni nazariy o'rganilishi jihatidan tarbiyaning asl negizi va asoslari, hamda uning inson hayotiy mazmunidagi tayanch xususiyatlari, ahamiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, davlat, renessans, tarbiya, bilim, ko'nikma, mehnat, ijtimoiy, Vatan, inson, jamiyat, kasb-hunar, aql, fe'l-atvor, xarakter, siyosat, ish, faoliyat, amaliyot, natijadorlik.

Бозорова Улмасхан

стажер-исследователь академии
государственного управления при
Президенте Республики Узбекистан
e-mail: u.bozorova@dba.uz

МОЛОДЕЖЬ – ДВИЖУЩАЯ СИЛА ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СТРАТЕГИИ III ЭПОХИ ВОЗРОЖДЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В статье широко раскрыты образовательные факторы современной молодежи III эпохи Возрождения, аспекты ее уникальных особенностей. При этом были упомянуты взгляды президента нашей страны на образование, упомянуты его реформы, направленные на четко определенные цели о том, какой должна быть молодежь новой эпохи и какие возможности мы можем для нее создать. Президент Шавкат Мирзиёев в своем обращении к нашему народу,

Олий Мажлису и народу Узбекистана подчеркнул важность поиска решений проблем в обществе и воспитания молодежи в гармонии со временем, уделяя большое внимание фактору образования.

Восточными и европейскими учеными, в частности Аль-Беруни, Вильямом Шекспиром, отражены определения и мнения о первоначальной сущности и основе воспитания, отшлифованной веками и не потерявшими своего значения до сих пор. В рамках теоретического изучения темы объяснены первоначальные ступени и основы образования, а также его основные особенности и значение в содержании жизни человека.

Ключевые слова: молодежь, государство, возрождение, образование, знания, умения, труд, социальное, Родина, человек, общество, профессия, разум, характер, характер, политика, труд, деятельность, практика, эффективность.

Bozorova Ulmaxon

Intern-researcher of the Academy
of Public Administration under
the President of the Republic of Uzbekistan
e-mail: u.bozorova@dba.uz

STIMULATING FORCE OF YOUTH III RENAISSANCE STRATEGY

ANNOTATION

The article widely reveals the educational factors of modern youth of the III Renaissance, aspects of its unique characteristics. At the same time, the views of the president of our country on education were mentioned, his reforms were mentioned, aimed at clearly defined goals about what the youth of the new era should be and what opportunities we can create for them. President Shavkat Mirziyoyev, in his address to our people, the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan, emphasized the importance of finding solutions to problems in society and educating young people in harmony with the times, paying great attention to the education factor.

Eastern and European scientists, in particular Abu Rayhan Bereniy, William Shakespeare, reflected definitions and opinions about the original essence and basis of education, polished over the centuries and which have not lost their meaning to this day. As part of the theoretical study of the topic, the initial stages and foundations of education are explained, as well as its main features and significance in the content of human life.

Key words: youth, state, renaissance, education, knowledge, skills, work, social, homeland, human, society, profession, mind, character, character, politics, work, activity, practice, effectiveness.

KIRISH.

So'nggi yillarda Vatanimizni tubdan takomillashtirish borasida jadal sur'atlarda amalda olib borilayotgan islohotlar tarbiya omilining favqulodda muhim ahamiyatini anglash, har bir insonning hayotda munosib o'rnini topish va uni ijtimoiy faollashtirish masalasini dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqardi. Tarbiya omili esa, insondan jamiyatga avval qanday bo'lsa shundayligicha emas, balki yangilangan, yanada takomillashgan, ya'ni, sifat jihatidan yuksalgan holda uyg'unlashuvni, ma'naviy, kasbiy va ijtimoiy faollashuvni taqoza etadi. Xolbuki, bugungi kunda yangilanayotgan O'zbekistonimizdagi keng qamrovli o'zgarishlar muhiti mamlakatimizdagi ko'pgina sohalar, texnika-texnologiyalar va insonning o'zini ham yangilanish jarayoni bilan to'liq darajada qamrab olgan desak, mubolog'a bo'lmaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalqimizga, Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida tarbiya omiliga katta e'tibor qaratib, zamonning sur'ati har qachongidan ham tezlashgani, jamiyatdagi muammolarni o'z vaqtida aniqlash va eng to'g'ri yechimlarni topish ijtimoiy rivojlanishda muhim ahamiyatga egaligini ta'kidladilar va bunday yondashuvni amalga oshirmaslik zamondan orqada qolish va yosh avlodni rozi qilmaslikka olib kelishini alohida qayd etdilar

Shunday ekan har bir insonning o'zgarishlarga tayyorlikning o'rni ham muhurlangan. “Albatta, Alloh biror bir qavm o'zlaridagi narsani o'zgartirmaganlaricha, ulardagi narsani o'zgartirmas” [1], deb bejiz aytilmagan. Yangi O'zbekistonni barpo etish, o'zgarishlarni ro'yobga chiqarish dastavval insonning o'ziga bog'liq va undan boshlanadi, deb qayta qayta ta'kidlashlari negizida chuqur ma'no mujassamdir.

Davlat rahbari mamlakatimiz ravnaqida inson omilini taraqqiyotning bevosita ishtirokchisiga, uning drayverlik ulushini oshirishga xalal beruvchi asosiy omillarga to'xtalib, “boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, o'quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerak. Ushbu jarayonlarda deputat va senatorlar, mahalla vakillari, ziyolilar, yoshlar, tadbirkorlar va keng jamoatchilikdan faol bo'lishlarini, yangi-yangi taklif va tashabbuslar bildirishlarini so'rayman” [2], dedilar.

Tarbiyaviy jarayondagi uch omil ustuvorligi, ya'ni, yoshlarning erkin va kreativ fikrlashi, jamoada ishlay olishi hamda muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishi asosiy zamin bo'lib xisoblanadi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, bugungi yoshlar uchun “bilim, mehnat va aql”[3] birligi va uyg'unligiga erishish favqulodda zarurdir. uning uchun esa, har bir sohani o'rganayotgan yoshlar hayotda eng avvalo yuksak ma'naviyatli, odob-axloqli bo'lishlari, o'zlari egallashga kirishgan kasb, hunar va mutaxassislikni eng yuqori darajada o'zlashtirib olishlari, bilib olib, teran anglagan narsalarini boshqalarga ham o'rgata olish darajasiga chiqishlari ularning asosiy hayotiy mezonlariga aylanishi talab etiladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, damlatimiz rahbari tomonidan aytilgan fikr, ya'ni, yoshlarimizning kasb va hunarlarni egallashlari uchun zarur bo'lgan uch talabning ikkitasi, ya'ni, aql va mehnat omillari faqat uzluksiz tarbiya orqali amalga oshiriladi.

METODOLOGIYA.

Ta'kidlash joizki, tarbiyaning drayverlik ahamiyati nafaqat hayotiy muammolarga to'g'ri yechimlar topishga balki, insonning shaxs sifatida shakllanib, bilim va motivatsiyaga ega bo'lish, yetuk mutaxassis sifatida hayotda o'zligini namoyon etish jarayonlarida ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatib turadi. Tarbiyadan kuzatilgan asosiy maqsadimiz xam aslida har bir yosh yigit- qizning hayotdan xoh tadbirkorlik bo'lsin, xoh vrach yoki pedagog bo'lsin, eng muhimi o'zining munosib hayotidagi o'rnini topishiga ko'maklashish, maqsad, yo'nalish va motivatsiyalarini shakllantirib, uni to'g'ri yo'lga solishdan iboratdir. Prezidentimizning Yoshlar Forumida so'zlagan nutqlarida ham bu borada alohida to'xtalib, “Yaqinda o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlar aksariyat yoshlarimizda ijobiy motivatsiya, biznes va tadbirkorlik sohasida zarur bilim va malaka yetishmasligini ko'rsatdi. Demak, ularga tadbirkorlik asoslarini o'rgatishga qaratilgan ishlarimizni yanada kuchaytirishimiz lozim” [4], deya ta'kidlab o'tdilar.

Bilimlarning tarbiya bilan bevosita bog'liqligi taraqqiyot bosqichlarida millatimizning ma'naviy yaxlitligi, iqtisodiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanish jarayonlarida o'ziga xoslik hamda milliy o'zlikni saqlashda ham muhim o'rin tutadi.

Insonning, ayniqsa, yoshlarning hayotda o'z munosib o'rnini topishlarida maqsad omilining o'rni va roli juda yuqori hisoblanadi. Maqsad barcha intilish, xohish, harakatlarning negizida turadi va ularga jon bag'ishlab turuvchi kuch vazifasini o'taydi. Antik davrning buyuk allomasi Aristotel o'zining “Poetika” asarida “Maqsad hamma narsaning boshidir. Maqsadi bor odamnigina barqaror fe'l-atvori, xarakteri bo'ladi. Maqsadi bor odamlar bilangina biror bir ishni bitkazsa bo'ladi. Maqsadi yo'qlar bilan esa, hech qanday ishni oxirigacha yetkazib bajarib bo'lmaydi”,[5] degan ulug'vor so'zlari zamirida juda katta ma'no va mazmun aks ettirilgan. Agar inson zotida o'z hayotiy mazmunini o'zgartirish, yaxshilash bo'yicha biror bir aniq maqsad yokida rejasi bo'lmas ekan, tabiiy holki, unda na bir harakat, na bir intilish ham, qiziqish yoxud ishtiyoq ham bo'lmaydi. Shuning uchun ham, ba'zi holatlarda, maqsadsizlik ishda va hayotda tayinsizlik va qo'nimsizlikka olib keladi. Qo'nimsizlik esa, albatta, ish joylarini tanlash va yangi ish joyida mustahkamlanishda ham, topayotgan maoshiga qanoat kilishda ham beqarorlik, noshukurlikni yuzaga keltiradi. Bu o'z navbatida nafaqat ish borasida balki, hayotiy maqomiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Maqsad omilining muhim masala ekanligi ijtimoiy munosabatlarda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Bugungi kunda aynan yosh oilalar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar va oilaviy ajrimlar tub

negizida ham aksariyat holatlarda maqsadsizlik masalasi, muammosi ham borligi va muhim rol o'ynashini mumkinligini e'tibordan chiqarmaslik lozim.

ASOSIY QISM.

Hamma narsaning negizida albatta, yaxshilanishga intilish, maqsadli yashashning farog'atini tushungan holda anglab yetishni odamlarning o'zlariga aniq faoliyat (kasb-hunar egallash, oliy ta'lim olish, tadbirkorlik vahokazolar)ga jalb etish orqali anglatildi. Amalga oshirilgan barcha ishlar esa, prezidentimizning “motivatsiya, ko'nikma, moliyaviy ko'mak berish” [6] modeli orqali aniq namuna, ibratli misollarga tayangan holda tashkil etildi. Darhaqiqat, motivatsiya so'zi mohiyat e'tiboriga ko'ra, maqsad, rag'bat va intilishga tayorlikni aks ettirida. O'z navbatida, Insonda kuchli motivatsiya bo'lmasa, biror bir shining boshini tutish uchun shu sohani mukammal o'zlashtirish, ko'nikmalar shakllantirish harakati ham bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda hamma narsa maqsadlilikdan kuch oladi. Yuqorida aytilgan mahallalarda maqsadlilikni shakllantirishga asoslangan mazkur rivojlanish modelini qo'llash qisqa vaqt ichida quvonarli natijalar bera boshladi. Har ikki hududda ham ishsizlik, boqimandalik, jamoat tartibotlarini buzish, jinoyat qilish va ayniqsa, oilaviy ajrimlar keskin kamaydi. Odamlarda o'zini o'zgartirish, o'z hayoti va faoliyatini yaxshilash istagi kuchaydi. Xususan, yoshlarda oliy ta'lim muassalariga o'qishga kirish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish, xorijga ish izlab ketish o'rniga o'zini o'zi band qilish, hudud va mahalladagi hamda o'zidagi qobiliyatlar, ichki imkoniyatlarini to'laroq ro'yobga chiqarish harakati keng tus oldi. Kasb-hunarlar yoshlar tomonidan puxta o'zlashtirilib, deyarli barchada o'z hayotini farovonlashtirish, tadbirkorlik bilan shug'ullanish, hayotidan zavq va shukronalik hissi kuchaydi.

Insonning baxtli saodatli bo'lishi va ma'naviy hamda kasbiy komillikka erishishining ikkinchi muhim jihati shundaki, bu- ishonch omilidir. Qiziqish holati qanchalar kuchli bo'lsa, insonning mehnatining natijalari, tanlagan ishiga bo'lgan ishtiyoqi, g'ayrati ham shuncha yuqori bo'ladi. Ishonch omili hayotda hali yuz bermagan, ammo, yuz berishi mumkin bo'lgan narsalarni inson tomonidan tasavvur etilishiga, tasavvuri doirasida esa e'tiqodi shakllanishiga ko'mak beradi.

Tarbiya orqali baxt-saodatga erishishning yana bir muhim jihati mehnatsevarlik fazilati bo'lib, bu xususiyat ham oila bag'rida shakllanib, bog'cha, maktab va maktabdan keyingi davrdagi maqsadli faoliyat jarayonida mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik fazilati nafaqat rejaviy tarzda bajariluvchi faoliyat, balki, har bir yigit-qizning ijtimoiy fazilati va ko'nikmasi darajasida shakllanishiga erishish lozim.

Mehnatning tarbiyalovchi mohiyatini ulug'lovchi, mehnatni sifatli ado etuvchilarning fazilatlarini haqida ulug' mutafakkir Abu Rayhon Beruniy ham o'zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” va “Hindiston” kitoblarida alohida to'xtalgan. Ayniqsa u mehnatda natijadorlik, doimiylik va uzluksizlik xususiyatiga alohida e'tibor qaratib, bu borada o'qituvchi mehnatining tarbiya bilan bevosita bog'liqligiga ahamiyat bergan. O'qituvchi mehnati tolib ongiga uzluksiz ta'sir ko'rsatishi natijasida aniq samara berishini, bilim olish esa faqat takrorlanuvchi mehnat orqaligina amalga oshirishini qayd etadi [7].

Mamlakatimiz Prezidenti Murojaatnomalarida ham islohotlar taqdiri birinchi galda sifatli va natijador mehnatga bog'liqligi hamda uning ijtimoiy samaradorligi borasida keng jamoatchilik e'tiborini qaratdi. Murojaatnoma matnini kontent-tahlil usuli orqali hisoblaganimizda “inson qadri”, “mehnat”, “ish”, “faoliyat”, “amaliyot”, “natijadorlik” so'zlarini eng ko'p ishlatilgani ham Yangi O'zbekistonni bunyod etishda mehnat va bunyodkorlik omillarining islohotlar taqdiri uchun nechog'li muhim ekanligiga amin bo'lamiz.

Bizga ma'lumki, muayyan mehnat, inson yoki faoliyatga bo'lgan muhabbat niholi dastavval qiziqishdan kuch oladi va qiziqish zaminida o'sib o'nadi. Darhaqiqat, qiziqishga asoslangan mehnatsevarlikni tarbiyalashda insonning vaqt bilan hisoblashmasligi, o'zi mehr qo'ygan sohasiga berilib ishlashi e'tiborga olinadi. Ammo, o'zgarayotgan zamon talablari insondan jamiyatga ko'proq foyda keltiradigan takliflar asosida yashash zaruratini ham kun tartibiga chiqaradi. Shu boisdan ham qiziqishlarni shakllantirish, yangi dunyo ehtiyojlariga muvofiq tarzda harakatlanish uchun inson o'zini o'zi maqsadli o'zgartirishi ham katta ahamiyatga egadir.

Ayni paytda zamonning eng muhim kasbiy yo'nalishlari qatorida IT texnologiyalari, qurilish, issiqxonalar yuritish, dizayn, xizmatlar, bog'dorchilik, chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik,

elektrotexnika, turizm va boshqa shunga o'xshash ko'pgina sohalarda shug'ullanish tez iqtisodiy foyda keltirishi jamoatchilik fikrida mustahkamlangan. AQShning Garvard universiteti tadqiqotlariga ko'ra, O'zbekiston yaqin yillarda 50 dan ortiq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda nisbiy ustunliklarga egadir.

Misol uchun, neft-gaz, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari, to'qimachilik, charm-poyafzal, oziq-ovqat hamada “yashil iqtisodiyot” bilan bog'liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimizning “drayverlari”ga aylanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Shu boisdan ham, kasbiy kamolotga erishishda mehnatsevarlikni maqsadli shakllantiriladigan qiziqishlar negizida shakllantirish katta ahamiyatga egadir.

XULOSA.

Yukoridagi omillarning o'zaro uyg'unlashgan holda amalga oshirilishi mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan aytilgan har bir ishning natijadorligi birinchi galda “bilim, mehnat va aql” birligi asosida amalga oshirilishidan iborat da'vatiga to'la darajada mos keladi. Shunday ekan har bir inson shaxs sifatida rivojlanar ekan avvalo, uning tarbiyasi, xulq-atvori, hayotda o'z maqsadi bo'lishi talab etiladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. “Qur'on Karim”ning 249–255[11]-sahifasida va 13-juzida joylashgan. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ra'd_surasi
2. “2023 yil — «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim» yili deb e'lon qilindi” Prezident parlamentga murojaatnomasida ta'lim masalasiga alohida urg'u qaratmoqda. <https://kun.uz/news/2022/12/20/2023-yil-insonga-etibor-va-sifatli-talim-yili-deb-elon-qilindi>
3. “Yangi O'zbekiston” ijtimoiy-siyosiy gazeta./ “Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyat barpo etilmoqda”. № 117 (373), 2021 yil 10 iyun.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O'zbekiston yoshlari forumi”da so'zlagan nutqidan <https://uza.uz/posts/197662> [https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-ozbekiston-yoshlari-forumida-sozlagan-nutqi_197662 .. 2023y.](https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-ozbekiston-yoshlari-forumida-sozlagan-nutqi_197662..2023y)
5. Aristotelning “Poetika” asaridan
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057> 2020y.
7. Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari, T.1. 1968, 102-bet.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
VOLUME 6, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000